ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

**"EKSPERT STROY LOYIHA"
MCHJ**

Holati: Ijobiy
Direktor: Jumaniyazova Shaxzoda Matyakubovna
Sana: 26-12-2024 yil

# YIG'MA EKSPERT XULOSASI

227329 - SONLI

| | |
|---|---|
| **Obyekt nomi:** Xiva shahar Kiyot MFY, Buyuk yo'l ko'chasi , 101/8- uyda 5 qavatli Ko‘p xonadonli turar-joy binolari qurilishi loyihasi | |
| **Buyurtmachi:** | "CHINOBOD ISHONCH SERVIS" XUSUSIY KORXONA |
| **Bosh loyihachi:** | "ART-KAMALAK" XUSUSIY KORXONA |
| **Moliyalashtirish manbai:** | Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan |
| **Bosh pudratchi:** | Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi. |
| **Qurilish turi:** | Yangi qurilish |
| **Murojaat raqami:** | 045471 |

## 1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Xiva shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limining 28.06.2024 yildagi Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish xamda o'z hududida qo'shimcha bino va inshootlarni qurish uchun 133161858-sonli ruxsatnomasi

1 .2. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2024-yil 2- iyul 43-3 -sonli buyurtma xati.

1.3. Qurilish bosh boshqarmasi bilan 2024-yilda kelishilgan va buyurtmachi tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.4. Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2024 –yil 2- iyul berilgan № 1733-1733406-192395 -sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.5. «Rustam geolog» tomonidan bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosasi

1.6. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan 2024 - yil 12- iyul berilgan 63-237-TSh/746 - sonli texnik sharti.

1.7. “Xorazm suv ta’minoti” AJ tomonidan 2024 - yil 15 – iyul berilgan 189-sonli texnik sharti.

1.8. “Hududgaz Xorazm” GTF tomonidan 2024 - yil 29 - iyul berilgan 081524 -sonli texnik sharti.

## 2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.2. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.3. Kitob. . "ART-KAMALAK" x/к loyiha tashkiloti tomonidan 2024-yilda bajarilgan teplotexnik hisob-kitoblar.

2.4. Kitob. "ART-KAMALAK" x/к loyiha instituti tomonidan 2024-yilda bajarilgan Energetika pasporti.

2.5. Loyiha tarkibiga ko‘ra «ishchi loyiha»ning AR, КЖ, ЭО, ВК, ОВ ,ОПС bo‘limlari.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.**

**3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.**

Normativ shamol bosimi - Wo = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - Sn = 0,50 kPa.

Qurilish maydonining zilzilabardoshligi - 9 ball.

Tuproq toifasi seysmik xususiyatiga ko’ra – III (uchinchi).

Tuproq – lyossimon tuproq.

Tuproq cho‘kuvchanligi – I (birinchi)

Yer osti suvlari yer sathidan 3.5-4.0 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi – 1,17 m.

Gruntlarning muzlash chuqurligi – 0,68 m 10 yilda bir marotaba, 0,82 m 50 yilda bir marotaba.

***3.2. Bosh reja.***

Ushbu **Xiva shahar Kiyot MFY, Buyuk yo'l ko'chasi , 101/8- uyda 5 qavatli Ko‘p xonadonli turar-joy binolari qurilishi loyihasi**

Bosh rejada quyidagi bino va inshootlar ko‘zda tutilgan.

***Bosh reja texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.***

Umumiy maydoni – 4560,00 $m^2$

Qurilish maydoni – 2200,00 $m^2$

***3.3. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.***

Loyihalanayotgan **4 ta 5 qavatli Ko‘p xonadonli turar-joy binolari** reja bo'yichai to‘rtburchak shaklida 2 yo`lakli bo’lib 5 qavatli yerto‘lali bino, tarxda o'lchamlari 14,40 x 39,40 metr. Yerto’la balandligi h = 2.1 m, 1 - qavat balandligi h =2.7 m, yuqori qavatlar balandligi h =2,7 m (poldan shiftgacha) ni tashkil etadi.

Binoda quyidagi xonalar joylashgan:

- yerto‘lada – texnik. etaj;
- 1-qavatda – koridor, hojatxona va yuvinish xonasi, umumiy xona, oshxona, yotoqxona(kattalar va bolalar), zinapoya;
- 2-5 qavatda - koridor, hojatxona va yuvinish xonasi, umumiy xona, oshxona, yotoqxona, zinapoya;

**3.4. Konstruktiv yechimlari.**

Binoning konstruktiv tuzilmasi – FBS, temirbeton ustunlar, qattiqlik yadrosi bilan seysmik yukni o‘ziga qabul qiluvchi.

Tashqi kontur bo‘ylab rigellar o‘rnatilgan.

Bino poydyevori – yig’ma va yahlit lentasimon temir-betondan (M200).

Devorlar – 380 mm qalinlikdagi pishgan gisht, vertikal metal uzaklari, metal peremichkalar bilan maxkamlash

Orayopma va tomyopmalar – yig’ma temir-beton plitalar.

Tom yopma– 220 mm monolit plita.

Tom qismi issiqlik qoplamasi – 120mm qalinlikdagi qattiq jun-mineral qoplamasi.
Pollar – laminat, keramogranit, keramik plita.
Derazalar – PVX profillar.
Eshiklar – MDF, alyumin profillar va temir.
Bino yon atrofi yo'lagi - beton.
Ichki pardozlash.
Devorlar – yaxshilangan suvoq, suvli emo'lsiya bo'yoq bo'yalgan.
Devorlarni keramik plitka bilan qoplash.
Shift – tekislangan va yorqin rangdagi suvli emo'lsiyabo'yog'i bilan bo'yalgan.
Tashqi pardozlash.
Devorlar – issiqlik izolyasiyalovchi bazal't materiali bilan qoplanib, mahsus setka bilan suvoq qilinib travertin bilan suvoqlanadi.
Tso'qo'l qismi – plitka bilan qoplash.

**3.5. Yong'in xavfsizligi.**

Yong'inga qarshiligi – II toifa.
Funktsional yong'in xavf turi – F1.3, F4.3.
Konstruktiv yong'in xavf turi – CO.
Loyihada qo'riqlash va yong'in xavfida xabar berish tizimi o'rnatilgan. Evakuatsiya holatida binodan chiqish yo'laklari tizimi belgilangan. Tok o'tkazmaydigan barcha elektr jihozlarining tuproqlanishi va nolga teng bo'lishi belgilangan (zazemlenie i zanolirovanie). Bino avtomobil yo'llari va rejalashtirilgan hudud bo'ylab o't o'chirish mashinalari uchun yong'inga qarshi yo'l bilan ta'minlangan. Barcha yong'in gidrantlarga o't o'chirish mashinalariga kirish imkoniyatiga ega.

**3.6. Energiya samaradorlik.**

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo'riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko'rsatilgan.
Devorlar tashqi tomondan 50 mm qalinlikdagi jun mineral qoplam (bazalt) bilan qoplangan.
Yoritish tizimida energiya tejamkor svetodiodli chiroqlar foydalanilgan;
Tom qismida quyosh panellaridan foydalanilgan; **Elektr energiyasining iste'moli hajmining kamida 50 foizi ushbu obyektda o'rnatiladigan quyosh panellari orqali ta'minlanadi**
Bino tom qismida har birining quvvati 550 Vt bo'lgan umumiy 88 kvt quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan Quyosh kollektorlari 48 ta 200 litrli baklar quyildi

**4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.**

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, elektr ta'minoti, aloqa va signalizatsiya, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalashtirish topshirig'iga asosan).

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. Ishchi loyiha Xorazm viloyati qurilish bosh boshqarmasi tomonidan ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan 2024-yil 25 – iyul 137848606 -sonli xulosa.

5.2. Xorazm viloyati ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertizasining 2024-yil 22- iyul 01-02/13-917 - sonli xulosasi.

**6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, muhandislik tarmoqlari, texnologik yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.3. Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida, hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarorida belgilangan tartibga ko‘ra “Nazorat o‘lchovi” natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishinni ta’minlaydi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

**7. Xulosalar.**

7.1 Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **Xiva shahar Kiyot MFY, Buyuk yo'l ko'chasi , 101/8- uyda 5 qavatli Ko‘p xonadonli turar-joy binolari qurilishi loyihasi** xujjatlari qismi, energiya samaradorligi va yong’in xavfsizligi bo’yicha ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflar inobatga olgan holda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.2. Buyurtmachi ekspertizaning izohlari bo`yicha tuzatilgan loyiha hujjatlarini bosh pudratchi tashkilotga o’tkazilishini ta’minlaydi.

7. 3. O’z.R. Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-sonli qarorini 5-bob 36-bandiga asosan ushbu ekspertiza xulosasi berilgan sanadan boshlab 2 yil davomida amal qiladi.

**Bosh ekspert***: Madrimov O.*

**Ishtirokchi ekspertlar***: Matyoqubov Atabek. Avezov A, Egamov Shoxrux. , Raximov G.*